

**ZAMONAVIY LANDSHAFT ARXITEKTURASIDA MO'JAZ ARXITEKTURAVIY
SHAKLLARNI QO'LLANILISH USULLAR****Ro'ziboboyev Azizbek Azamat o'g'li**

Termiz davlat muhandislik va
agratexnologiyalar universiteti assistenti

Email: azizbekroziboboyev@gmail.com,

+998991736351

Amonov Sardor Xolmurzayevich**Rustamova Laylo O'ralovna**

Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti talabalari

Annotatsiya

Maqolada landshaft ob'ektlari hududlarini reja bo'yicha loyihalashning uslubiy elementlari, ob'ektlarga landshaft dizayni elementlarini qo'llash va landshaft elementlaridan mohirona foydalanish bo'yicha ishlar tasvirlangan. Ushbu maqola landshaft dizayni elementlarining badiiy aloqasini aks ettiradi.

Kalit so'zlar

Dekorativ shakllar, o'rindiqlar, yoritgichlar, urnalar, guldonlar, dekorativ haykallar, favvoralar, dekorativ jomlar, dekorativ suv havzalari, dekorativ devorlar, trelyajlar, alpinariyalar.

**METHODS OF USING ARCHITECTURAL FORMS IN MODERN LANDSCAPE
ARCHITECTURE****Ru'ziboboyev Azizbek Azamat oglu****Assistant Professor, Termez State****University of Engineering and Agrarian Technologies**

Email: azizbekroziboboyev@gmail.com,

+998991736351

Amonov Sardor Kholmurzayevich

Rustamova Layla Uralovna

Students of Termez State University
of Engineering and Agrotechnology

Abstract

The article describes the methodological elements of the design of landscape objects according to the plan, the application of landscape design elements to objects, and the skillful use of landscape elements. This article reflects the artistic connection of landscape design elements.

Keywords

Decorative shapes, seats, lamps, urns, flowerpots, decorative sculptures, fountains, decorative bowls, decorative ponds, decorative walls, trellises, rockeries.

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АРХИТЕКТУРНЫХ ФОРМ В СОВРЕМЕННОЙ ЛАНДШАФТНОЙ АРХИТЕКТУРЕ

Рузибобоев Азизбек Азамат оглы

**Доцент, Термезский государственный
университет инженерии и аграрных технологий**

Электронная почта:

azizbekroziboboyev@gmail.com, +998991736351

Амонов Сардор Холмурзаевич

Рустамова Лейла Ураловна

Студенты Термезского государственного

университета инженерии и агротехнологий

Абстрактный

В статье рассмотрены методические элементы проектирования ландшафтных территорий по плану, нанесение элементов ландшафтного дизайна на объекты, работа по умелому использованию элементов ландшафта. В статье отражена художественная связь элементов ландшафтного дизайна.

Ключевые слова

Декоративные формы, сиденья, светильники, урны, вазоны, декоративные скульптуры, фонтаны, декоративные чаши, декоративные пруды, декоративные стены, решетки, рокарии.

Kirish. Mo'jaz arxitekturaviy shakllar—bu landshaft arxitekturasini ob'ektlarini tashkil etish uchun ishlatiladigan kichik inshootlar bo'lib, ob'ekt hududining estetik landshaft ko'rinishini boyitish va odamlar dam olish qulayliklarini oshirish uchun xizmat qiladi. Mo'jaz arxitekturaviy shakllar quyidagi turlarga bo'linadi: Dekorativ shakllar, dekorativ haykallar, favvoralar, dekorativ jomlar, dekorativ suv havzalari, dekorativ devorlar, trelyajlar, alpinariyalar va boshqalar; - foyda olish xarakteriga ega utilitar shakllar - savdo kioskalari, o'rindiqlar, to'siqlar, ko'rsatkich belgilari va boshqalar.

Utilitar xarakterga ega bo'lgan mo'jaz arxitekturaviy shakllar o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi: -relefni tashkil etadigan va bezaydigan mo'jaz arxitekturaviy shakllar- ochiq zinapoyalar, panduslar, tirkak devorlar, qiyaliklar; - o'simliklar uchun qurilmalar-guldonlar, pergolalar, trelyajlar; -sun'iy suv havzalari va qurilmalari-basseynlar, prudlar, pog'onali sharsharalar, shalolalar, suv ichish favvorachalari, suv karusellari va boshqalar; -o'rab olish uchun mo'jaz arxitekturaviy shakllarto'siqlar, devorlar, pardevorlar (parapetlar); -dam olish qurilmalari va inshootlari-plyajlar, maydonchalar uskunalari, pavilonlar, bog'-park mebellari; -savdo va xo'jalik inshootlari-kiosklar, palatkalar, laryoklar, bolalar va xo'jalik maydonchalari uskunalari va boshqalar.

Barcha mo'jaz arxitekturaviy shakllar qurilishi bo'yicha ikki guruxga bo'linadi: - maxsus ishlab chiqarilgan, individual loyihalar bo'yicha tayyorlangan; -tipovoy loyihalar bo'yicha, tipovoy elementlar va konstruksiyalardan tayyorlangan.

Tipovoy elementlar bo'yicha tayyorlangan mo'jaz arxitekturaviy shakllar, ko'kalamzorlashtirilgan umumshahar ob'ektlari va turarjoy hududlarida qo'llaniladi. Bog'-park mebellari landshaft arxitekturasida ob'ektlariga tashrif buyuruvchilar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish uchun xizmat qiladilar

Ob'ekt hududlaridagi shakllar ishlatilishi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadilar: -umumiy foydalanish qurilmalari – o'rindiqlar, yoritgichlar, urnalar va boshqalar; - maxsus qurilmalar – dam olish joylari, bolalar maydonchalari, sport qurilmalari, suv qurilmalari, plyajlar va boshqalar uchun; -xo'jalik qurilmalari-maishiy xizmat butkalari, axlat konteynerlari va boshqalar.

Umumiy foydalanish qurilmalari.

O'rindiqlarning qisqa vaqt (suyanchiqsiz) va uzoq vaqt (suyanchiqli) dam olish ob'ektlari mavjud. Ularning tashqi ko'rinishi xilmaxil bo'lib, har xil materiallardan tayyorlanadilar- metall, beton, yog'och, plastmassa va toshdan. O'rindiqlar tayyorlanishiga qarab, bir oraliqli uzunligi 1,2 m dan 2 m gacha, ikki oraliqligi 3,2 m dan 4 m gacha. O'rindiqlar balandligi 40 sm qilib olingan. O'rindiqlar joylashish soni 1 ga. hududga 30-60 ta gacha bo'lishi mumkin.

Toshdan ishlangan o'rindiqlar qattiq va sovuq bo'ladi, ularni ko'chmas qilib, maxsus poydevorlarga o'rnatishadi. Bu hozirgi zamon talablari bilan o'tkaziladigan kapital ta'mirlash ishlarga xalaqit beradi. Metall faqat mustahkamlab biriktirish qismlari uchun ishlatiladi, mebellarning naqshli oyoqlarini cho'yandan yasashadi. Beton ham tosh kabi ishlatilishi uzoq muddatli material bo'lib, o'rindiqlar tayyorlanishiga juda qulay. Toshli o'rindiqlar kabi beton o'rindiqlar ham sovuq bo'lib, o'tirish uchun noqulay. Ichiga har qanday rang beruvchi qo'shimchalar aralashtirilgan bo'lsa ham beton o'rindiqlar qirralarining sinishi bilan kishida yomon taassurot uyg'otadi.

Yog'och materialli o'rindiqlarni tayyorlash oson bo'lib, ularning issiqlik o'tkazish xususiyatlari baland. Antitseptiklangan va ishlov berilgan yog'ochlar uzoq muddatga xizmat qilishi mumkin, asosiysi singan qismlarni oson almashtirib ta'mirlash mumkin -oyoqlari yo tirgaklari uchun – tosh, granit, marmar, ohaktosh, gablo, bazalt, g'isht, beton, metall, chugun; -o'tirgich va suyanchig'i uchun –yog'och (bruss, yarim bruss, taxtalar, reykalari) ishlatiladi.

Axlatdon bu maxsus idish bo'lib, yig'ilgan va vaqtinchalik axlatlarni saqlash uchun va atrof-muhitni ifloslanishidan saqlab, sanitar-gigienik talablarga javob

berishini ta'minlaydi. Urnalar ko'zga chalinmas, uncha katta bo'lmagan (balandligi 80 sm gacha, kengligi 50 sm gacha), ikki qismli sirtidan tashkil topgan bo'lishi kerak. Sirtlar oddiy yoki naqshli yuzasi bilan, yog'ochdan, metallardan, asbesto-sementdan, sopoldan, dyuralyuminiydan tayyorlanadi

Axlat yiqqich (konteynerlar) zanglamas metallardan konteyner ko'rinishida, sirtli shaklga ega bo'lgan, sirtlardan ajratib olish uchun maxsus qurilmali bo'lishi kerak. Urnalar uch turga bo'linadi: - qo'zg'almas tirgakli, poydevorga o'rnatilgan; - bino va inshootlar devorlariga qistirilgan; - erda ozod holda turgan. Urnalar savdo shaxobchalari hududiga, o'rindiqlardan 0,8 m gacha kam bo'lmagan masofaga qo'yiladi. Urnalar atrofdagi o'simliklar bilan uyg'unlashishi uchun, neytral (o'rta) ranglarga bo'yaladi.

Umumiy foydalanish o'rindiqlari har xil materiallar bilan aralash usulda ham yasalishi mumkin: Guldonlar – maxsus qurilma bo'lib, gurkirab o'sadigan rangli gullaydigan o'simliklar uchun ishlatiladi. Ular yasalishi bo'yicha har xil shakllarga ega: kvadrat, aylana, ko'pburchakli, oval shaklida bo'lishi mumkin.

Qurilish materiallari uchun: yog'och, sopol, beton, tosh bloklar, plastmassa ishlatilishi mumkin Guldonlar sementdan tayyorlanishi, silliq yuzali yoki relefli yuzali, tashqi tomondan oq va har xil rangli (sement, granit, marmar parchalari, chaqir toshlar, klinkerlar qo'shimchalar kiritishi bilan) bo'lishi mumkin. Standart guldonlar uchun silliqlangan g'isht yoki tabiiy toshlar (plitka shaklida, silliq yoki yuzasi fakturali) materiallar ishlatiladi.

Mobil guldonlar og'irligi 100 kg dan (tuproq bilan to'ldirilgan) ortiq bo'ladi. Uch tonnaga mo'ljallangan avtokran yordamida ularni ortish yoki tushirish mumkin. Ulardan xohlagancha landshaft kompozitsiyalari yaratish mumkin. O'simliklar chirmasligi uchun pastki qismlariga teshiklar qo'yiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22- yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning 2022-2026- yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.-T., 2022.
2. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). Расчет Тросовых Висячих Покровов В Пк Лира. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 16, 119-123.

3. Жўраев, С. (2023). АЛИШЕР НАВОЙИ ДАВРИ ИМОРАТЛАРИНИНГ АРХИТЕКТУРАСИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(16), 142-146.
4. Turayev, S., & Sanjar, J. (2023). ZILZILA VAQTIDA BINO VA ZAMIN GRUNTLARINING O'ZARO TA'SIRI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 410-414.
5. Sanjar, J. (2023). DEVELOPMENT OF CULTURE AND ENTERTAINMENT PARKS. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 9, 49-52.
6. Жураев, С., & Тураев, Ш. (2023). ДВУХПОЯСНЫЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНО НАПРЯЖЕННЫЕ СИСТЕМЫ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(29), 77-81.
7. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). ТЕРМИНОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ВИСЯЧИХ И ВАНТОВЫХ МОСТОВ. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 197-206.
8. Хурсандов, Э. Ў. (2024). ЭГИЛУВЧИ ЭЛЕМЕНТЛАРНИ ҲИСОБЛАШ ВА УЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКАРИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(5), 73-76.
9. THE CITY OF TERMEZ DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS (First name of Termez) Ro'ziboboyev.A.A shovqindan himoya qilishning chora-tadbirlari arxitekturaviy tarxiy uslublar
10. OLD TERMEZ IN HISTORICAL SOURCES (XIXEARLY XX CENTURIES) Ro'ziboboyev.A.A Akilova K. "O'zbekistonda dizaynning rivojlanish istiqbollari" Toshkent. 2006 y. (Respublika ilmiy-nazariy anjumani tezislar to'plami).
11. UMUM TA'LIM MAKTABLARNING INOVATSION TA'LIM TIZIMI ASOSIDA TASHKILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI (O'zbekiston miqyosida arxitekturaviy loyihalash asosida) Ro'ziboboyev.A.A
12. Ruziboboyev, A. (2023). REQUIREMENTS AND THEIR SOLUTIONS FOR THE DESIGN OF UNIVERSITY SCHOOLS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 463-466.
13. Bozorqulov, S., Ro'ziboboyev, A., & Nazarov, B. (2024). SHAHARSOZLIKDA SHOVQINDAN HIMOYA QILISHNING CHORA-TADBIRLARI ARXITEKTURAVIY TARXIY USLUBLAR. Talqin va tadqiqotlar.
14. Yusufovich, J. N. (2025). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA O'ZBEKISTON ARXITEKTURASI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 64(5), 235-243.

15. Nurullo o'g'li, A. S. (2025). SHAHARSOZLIKDA “SMART CITY” KONSEPSIYASI ELEMENTLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 64(5), 244-254.
16. Xolmurzayevich, A. S. (2025). O'SIMLIKLAR BILAN QO'LLANILADIGAN MO'JAZ ARXITEKTURA FORMALARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 64(5), 230-234.